



ALISHER NAVOIYNING "LISON UT-TAYR" ASARIDAGI INSON E'TIQODINI ANGLATUVCHI LEKSIK BIRLIKLAR HAQIDA

**Muhammadjonova
Dilafruz**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy
pedagogika universiteti Filologiya fakulteti O'zbek tili
va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidagi inson e'tiqodi va ma'naviy olamini ifodalovchi leksik qatlam tahlilga tortilgan va diniy-falsafiy terminlarning etimologik ildizlari hamda ularning matn ichidagi semantik tovlanishlari yoritilgan. Dostondagi ramziy obrazlar va tushunchalar orqali insonning o'zlikni anglash, nafsni jilovlash hamda haqiqatga erishish yo'lidagi bosqichlari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, mumtoz so'zlarning hozirgi o'zbek tili iste'molidagi o'rni va lug'aviy o'zgarishlari qiyosiy jihatdan bayon etilgan.

Kalit so'zlar:

leksik birliklar, etimologik tahlil, semantika, nafs, e'tiqod, ramziy ma'no, poklanish yo'li.

Mumtoz o'zbek adabiyoti tarixida yulduz misol porlagan, millatning g'ururiga aylangan buyuk so'z san'atkori hazrat Alisher Navoiyning bebaho merosi asrlar osha yashab, mana necha yildirki, yosh avlodga badiiy zavq bag'ishlamoqda. Uning insoniylik, mehr-oqibat, adolat va haqiqat kabi yuksak qadriyatlar ulug'langan asarlari ta'siri juda keng qamrovga ega bo'lib, turkiy xalqlar adabiyoti rivojiga sezilarli hissa qo'shgan. Shuningdek, Navoiy inson qalbining eng nozik torlarini chertib, hayotning achchiq haqiqatlari, orzu-umidlari, sevgisi va armonlari uyg'unlashgan "Xamsa" dostoni bilan Sharq adabiyotining eng yuksak cho'qqilaridan biriga ko'tarilgani ham muhimdir. Hassos shoirning xazinasidagi "Lison ut-tayr" dostoni buyuk tilshunos olimning o'ziga xos badiiy mahorati, chuqur falsafiy fikrlari va yuksak insonparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan. Bu asar o'zining adabiy jihatdan yuqori darajada ekanligi bilan ham ajralib turishi barchaga ma'lum. Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" idan ta'sirlanib yozilgan mazkur asar ko'p qatlamli doston hisoblanib, turli mavzularni qamrab olgan. Dostonda insonning ichki dunyosi, nafs bilan kurashi, ma'naviy poklanish kabi masalalar birlamchi mavzular sirasiga kirishi barobarida undagi qahramonlar ham turli xil xarakterlarga ega hamda ularning har biri odamzotning biror xususiyatini aks ettiradi. Shubhasiz, asarning bosh g'oyasini ochib berish uchun inson e'tiqodiga oid so'zlardan foydalanilgan. Ma'lumki, Alisher Navoiy islom dinini juda qadrlagan inson sifatida e'tiqod masalasiga jiddiy e'tibor qaratgan. Uning har bir asarida ushbu mavzu ulug'langan. Navoiyning falsafiy asari sanalmish "Lison ut-tayr"

da bu g'oyaga e'tibor yanada kuchli bo'lgan. Mazkur asarda insonning diniy e'tiqodi noyob leksemalar bilan ifodalanishi alohida ahamiyatga ega.

lug'atida *e'tiqod* arabcha [إِغْدَاقٌ] “ishonch”, “ishonish”, “ko'ngilda tasdiqlash”, “imon”

“qattiq ishonch” ma'nolarini anglatadi¹. Xossatan, “Qush tili” dostonida *e'tiqod* mavzusi markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Asar qushlarning Simurg'ni izlash safariga o'tlanishlari bilan boshlanadi va bu safar ramziy ma'noda insonning haqiqat va ma'rifat sari intilishini anglatadi. *E'tiqod* esa bu yo'lda asosiy harakatlantiruvchi kuch vazifasini bajaradi. Asar oxirida qushlar Simurg'ni topganlarida, ular aslida o'zlarining aksini ko'rishadi. Bu shuni anglatadiki, haqiqiy e'tiqod insonning o'zida, uning ichki dunyosidadir. Inson o'zining kuchiga, imkoniyatlariga ishonsa, u har qanday qiyinchilikni yengib maqsadlariga erisha oladi. Muallif e'tiqodiy qarashlarni ifodalovchi ko'plab turkiy, arab va forsiy so'zlarni o'z o'rnida qo'llar ekan, ularning semantik ma'nosiga ham alohida ahamiyat beradi.

Jumladan, *xalloq* so'zi arabcha [خَالِق] Yaratuvchi, Xudo ma'nosini anglatib, turkiyzabonlar nutqida qo'llangan, hozirda o'zbek tili izohli lug'atidan joy olgan². Biroq iste'molda juda kam foydalaniladi. *Xalloq* leksemasining Xudo ma'nosi boshqa ma'nolariga nisbatan ancha kuchli bo'lganligi bois hozirda ushbu termin faol ishlatiladi. “Ulki maxluqot xalloqidir ul, ondind o'zga foniyu boqidur ul”³.

Shuningdek, uning semantik maydoni ancha keng va chuqurdir. So'zning ma'nosiga qarab, turli kontekstlarda qo'llana oladi.

Navbatdagi e'tiqodiy termin – *muqtado* so'zining etimologiyasiga e'tibor bersak, ushbu so'z arab tilidan o'zlashgan bo'lib, quyidagi ikki qismdan tashkil topgan: *muqta* (مُقْتَدَا) bu qism iqtida (اِقْتِدَاء) so'zining ma'nosiga bog'liq bo'lib, “ergashadigan”, “taqlid qiluvchi”, “izidan boruvchi” ma'nolarini bildiradi. Bu fe'lning qada (قَادَ) asosidan hosil bo'lgan. -da : bu esa arab tilidagi ism yasovchi qo'shimcha bo'lib, fe'ldan ism hosil qilish uchun qo'llaniladi. Demak, *muqtado* so'zi “ergashadigan”, “izidan boruvchi”, “taqlid qiluvchi”, “namuna qiluvchi” ma'nolarini bildiradi. Uning ishlatilishi ko'pincha din, e'tiqod, siyosat va ijtimoiy hayotga bog'liq bo'lgan asarlarda kuzatiladi. Masalan, diniy rahbarga ergashuvchi kishi *muqtado* deb ataladi. Shuni ta'kidlash kerakki, *muqtado* so'zi faqatgina diniy rahbarga ergashuvchi shaxsni bildirmaydi. Umumiy ma'noda, kimgadir taqlid qilish yoki uning izidan borish hollari ham *muqtado* so'zi bilan ifodalanishi mumkin: “Olam ichra andoq aylab muqtado, kim bo'lub xayli malakka peshvo”⁴.

Yoxud *ofarinish* [اَفَرَانِش] forsiy so'z hisoblanib, Alisher Navoiy asarlari lug'atida u “yaratilish”, “vujudga kelish” deya izohlanadi⁵. Ammo hozirgi o'zbek tili izohli lug'atida bunday termin mavjud emas. Demak, mazkur so'z fors tilidan turkiylar lug'atiga o'zlashgan va muayyan vaqt ichida qo'llanilgan. “Sone'ikim chekti chun sun'i qalam, ofarinish tarhini qildi raqam”⁶. Baytdagi *tarh* so'zi arab tilidan o'zlashgan

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2022. - 68b.

² O'zbek tilining izohli lug'ati. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2022. - 379b.

³ T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019. 3b.

⁴ Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019. - 5b.

⁵ Navoiy asarlari lug'ati. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. - 490b.

⁶ T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019. 3b.

bo'lib, Navoiy asarlari izohli lug'atida quyidagicha sharhlanadi: 1. Tashlash, olib tashlash; 2. Qurilgan bino; 3. Qurilish va imoratning rejasi. Lekin *ofarinish tarhi* birikma holatida yaratish rejasi kabi ma'no kasb etadi. Demak, bu termin Allohning kosmosni va undagi hamma narsani yaratish rejasi yoki uslubini anglatish mumkin.

Yana bir inson e'tiqodiga oid so'z – *anbiyo* [أنبياء] so'zi bo'lib, [بَنِي] (nabiy) so'zining ko'plik shaklidir. Nabiy esa "xabar beruvchi", "payg'ambar", "Alloh tomonidan xabar yetkazilgan kishi" ma'nolarini anglatadi. So'zning etimologiyasini chuqurroq tahlil qiladigan bo'lsak: [نَبَأ] (naba'a): bu fe'l "xabar berish", "xabar yetkazish", "voqea sodir bo'lish" ma'nolarini bildiradi. *Anbiyo* so'zining ildizi shu fe'lga asoslanadi. -iy : bu qo'shimcha fe'ldan sifat yoki ism hosil qilishda ishlatiladi. nabiy so'zi naba'a fe'lining fa'ili bo'lib, xabar beruvchi ma'nosini anglatadi. -o : bu esa arab tilidagi ko'plik qo'shimchasidir. *Anbiyo* so'zi nabiy so'zining ko'plik shakli bo'lgani uchun ushbu qo'shimcha qo'llanilgan. Bu so'z Qur'oni Karimda va islom adabiyotida Allohning payg'ambarlariga ishora qilish uchun keng qo'llaniladi. Shuningdek, kengroq ma'noda, xabar yetkazish vazifasini bajaradigan har qanday shaxsga nisbatan ham ishlatilishi mumkin, ammo asosan diniy matnlarda ishlatiladi:

”Anbiyo sarxayli sultoni rusul, kim erur oning tufayli juzvu qul”⁷.

Arab tilidan o'zlashgan *dorussurur* [دَارُالسُرُور] so'zi ham “shodlik uyi”, majoziy ma'noda esa “boqiy dunyo”ni anglatib kelgan. “Chun taqarrubda topib dorussurur, ko'ngliga ul qurbdin solg'on g'urur”⁸. Keltirilgan ushbu baytda *dorussurur* termini *taqarrub* so'zi barobarida boqiy “boqiy dunyoga yaqinlashish” ma'nosida ishlatilgan. Bu so'z majoziy ma'no kasb etsa-da, “quvonch uyi”, “xursandchilik saroyi” ma'nolarida Amir Temur va Temuriylar davri adabiyoti manbalarida faol ishlatilgan. Keyinchalik bu termin qo'llanilmagan bo'lsa-da, tarixiy matn va adabiyotlarda Xorazm shahriga nisbatan uning go'zalligi, obodonligi va farovonligini ifodalovchi poetik atamalar bilan ifodalangan. Muallif esa bu so'zni majoziy ma'noda qo'llar ekan, inson e'tiqodi tufayli boqiy dunyoga yaqinlashishi haqida yozadi. Hozirgi o'zbek tilining izohli lug'atida bunday so'z mavjud emas va iste'molda ishlatilmaydi.

Shuningdek, “axloqiy buzuqlik”, “uydirma gap” ma'nosi arabcha *fisq* termini [فِسْق] orqali ifodalangan⁸. Islom huquqshunosligida bu so'z “gunoh”, “taqvodan chetlashish” ma'nolarida ham ishlatiladi: “Jonima isyon mayidin mastlig', ko'ngluma fisq ahlig'a pobastlig'”⁹. Hozirgi o'zbek tilining izohli lug'atida esa bu

so'z mavjud va ayni ma'no doirasida qo'llaniladi. Ko'proq bu so'z *fasod* termini bilan birga *fisq-fasod* holatida foydalaniladi.

Yana bir inson e'tiqodiga oid eng muhim terminlardan biri bu, shubhasiz, *nafs* so'zidir. *Nafs* arabcha [نَفْس] so'z hisoblanib, Alisher Navoiy asarlari izohli lug'atida quyidagi ma'nolarni anglatadi: 1. Shaxs, vujud, gavda; 2. Kishida turli maishiy orzu-havasga bo'lgan tabiiy mayl, istak; 3. Mol-dunyoga bo'lgan hirs¹⁰.

“Lison ut-tayr” da nafsning murakkabligi va ko'p qirrali xususiyatlari ifodalanadi.

⁷ Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019. - 10b. ⁸

Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019. - 5b.

⁸ Navoiy asarlari lug'ati. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. - 639b.

⁹ T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019. 7b.

¹⁰ Navoiy asarlari lug'ati. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. - 454b. ¹²

Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019. - 9b.

Qushlarning Simurg'ga yetib borishdagi safarlari insonning ma'naviy takomillashuv yo'lini, nafsini poklash va Allohga yaqinlashish jarayonini ramziy ravishda ifodalaydi. Bu safar davomida ular nafsning turli darajalari bilan kurashadilar va oxir-oqibat ma'naviy poklikka erishadilar. "Adlu ehsoningga xos etgil meni, nafs zolimdin xalos etgil meni"¹². Hozirgi o'zbek tili izohli lug'atida ushbu so'z mavjud va ayni ma'no doirasida qo'llaniladi.

Xususan, *mazhar* so'zi arab tilidan olingan bo'lib, [رَهْظ] (zuhur) fe'lidan hosil bo'lgandir. Zuhur fe'lining asosiy ma'nosi "ko'rinish", "paydo bo'lish", "yaqqol namoyon bo'lish"dir. Masalan, ilmning mazhargohi — ilmning yaqqol ko'rinish turgan joyi, markazi. So'zning asosiy ma'nosi biror narsaning yaqqol, aniq ko'rinishiga ishora qiladi: "Bu ajab mazharni ko'zga ilmag'on, sajdasin xayli malakdek qilmag'on"¹¹.

Navbatdagi e'tiqodiy termin – arab tilidan o'zlashgan *mahram* [مَحْرَم] so'zi bo'lib, حَرَم (harama) fe'lidan hosil bo'lgandir. Harama fe'lining asosiy ma'nolari quyidagilar: harom qilish, ya'ni biror narsani ta'qiqlash, man etish, mumkin emas deb e'lon qilish. Yoki himoya qilish, ya'ni biror narsani yoki biror kishini muhofaza qilish, hurmat qilish. Bu ma'no "harom qilish" terminidan kelib chiqadi, chunki biror narsani himoya qilish uchun uni ta'qiqlash, unga yaqinlashishni man etish mumkin.

Mahram so'zi esa, ushbu fe'ldan kelib chiqqan holda, asosan, ikki xil ma'noda qo'llaniladi: 1. Harom bo'lgan: biror narsa yoki ishning harom ekanligini bildiradi;

2. Himoyalangan shaxs (yaqin qarindosh): bu ma'nosi islom shariatida muhim o'rin tutadi. Islomda mahram ayollarga erkaklarning ma'lum yaqin qarindoshlari kiradi, ularning huzurida ayollar hijob (yopiq kiyim) kiyish shart emas. Bunday yaqin qarindoshlar, ayolning sharafiga himoya qiladigan va unga nisbatan begonalar kabi munosabatda bo'lmasliklari sababli, *mahram* deb ataladi. Bu ma'noda, yaqinlik va himoya ma'nolari ustun keladi: "Bordi ondin mahrami dilbandig'a, Ondin o'ldi muntaqil farzandig'a"¹².

Arab tilidan o'zlashgan *maxluqot* [مَخْلُوقَات] so'zi خَلَق (xalq) fe'lining ma'nosiga bog'liq. Xalq fe'lining asosiy ma'nosi "yaratish", "vujudga keltirish"dir. *Maxluqot* esa xalq fe'lining ma'nosiga asoslangan holda, "yaratilgan narsalar", "mavjudotlar" degan ma'noni anglatadi. So'zning tarkibiy qismlarini tahlil qilsak: [مَخْلُوق] (maxluq): bu qism xalq fe'lining ma'sul shaklidan hosil bo'lgan bo'lib, "yaratilgan", "vujudga keltirilgan" ma'nosini anglatadi. Ya'ni, Alloh tomonidan yaratilgan narsani ifodalaydi. -at : bu esa arab tilidagi ko'plik qo'shimchasidir. Ko'plik qo'shimchasi bir nechta narsaning yoki mavjudotning yaratilganligini ko'rsatadi. Bu so'z koinotdagi barcha narsalarni, jonli va jonsiz mavjudotlarni, tabiat hodisalarini o'z ichiga oladi. U ko'pincha diniy va falsafiy asarlarda ishlatiladi, lekin umumiy ma'noda ham qo'llanishi mumkin: "Ulki maxluqot xalloqidir ul, ondin o'zga foniyo boqidir ul"¹⁵.

Navoiy asarlari terminologiyasida ko'p qo'llaniladigan so'zlardan yana biri bu *zuhd*. *Zuhd* [زُهْد] so'zi arab tilidan olingan bo'lib, زَهَادَة (zahada) fe'li shaklidir. Zahada fe'lining asosiy ma'nosi "beparvo bo'lish", "qiziqmaslik", "dunyodan voz kechish"dir¹³. Bu beparvolik va qiziqmaslik, asosan, dunyoviy

¹¹ T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019. 6b.

¹² Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019. - 10b. ¹⁵

Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019. - 3b.

¹³ O'zbek tilining izohli lug'ati. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2022. - 166b.

narsalarga, boylikka, lazratlarga nisbatan bo'ladi. Shunday qilib, *zuhd* so'zi faqatgina dunyoviy narsalardan qiziqmaslikni emas, balki bu beparvolikning ma'naviy jihatini ham o'z ichiga oladi. Bu Allohga bo'lgan muhabbat va unga yaqinlashish yo'lida dunyoviy narsalardan voz kechishni anglatadi. Islomda *zuhd* muhim ma'naviy qadriyatlardan biri hisoblanadi. Lekin, *zuhd*ni faqatgina qashshoqlik va qiyinchiliklar bilan bog'lash noto'g'ri. *Zuhd* moddiy boylikka bog'liq bo'lmaslik va ruhiy poklikka intilishni anglatadi: "Necha ming yil zuhdu toat aylagan, amrig'a oning itoat aylagan"¹⁴.

Navoiyning e'tiqodli inson tasviri faqatgina diniy jihatlarni emas, balki insoniylikning yuksak fazilatlarini ham o'z ichiga oladi. Uning asarlarida e'tiqodli inson, bir tomondan, Allohning sadoqatli bandasi, ikkinchi tomondan esa, jamiyat uchun foydali, axloqiy jihatdan yuksak inson sifatida tasvirlanadi. Uning fikricha, chinakam e'tiqod amalda namoyon bo'lishi kerak va bu amal insonning butun hayot tarzini belgilashi lozim. U shunchaki ibodat qilish bilan chegaralanmasdan, hayotining har bir sohasida islom qadriyatlariga amal qilishi kerak. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Navoiy mazkur asarda Xudo tashqarida emas, sening o'zingda, qalbing ichida fikrlarni ilgari suradi, komillikka erishish yo'lini yuksak she'riy mahorat bilan bayon etadi. Asarning asosiy g'oyasi insonning axloqini ulug'lash hamda e'tiqod yo'lini ko'rsatishdan iborat. Ta'kidlash joizki, Navoiyning asarlarini chuqur anglash orqali inson o'zining ichki dunyosini, qadriyatlarini, orzu-umidlarini va mavjudotning ma'nosini anglashga yaqinlashadi. Bu esa o'z navbatida o'zlikni anglashning muhim qismidir. Demak, "Lison ut-tayr" dostoni insonni o'z e'tiqodi ustida tafakkur qilishga, uni mustahkamlashga va haqiqat sari intilishga undaydigan mukammal asardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2022. – 529 b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2022. – 529 b.
3. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019.
– 285 b.
4. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019.
– 285 b.
5. Navoiy asarlari lug'ati. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. – 784 b.
6. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019.
– 285 b.
7. Navoiy asarlari lug'ati. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. – 784 b.
8. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019.
– 285 b.

¹⁴ Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019. - 5b.

9. Navoiy asarlari lug'ati. –T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. – 784 b.
10. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019. – 285 b.
11. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. –T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2019. – 285 b.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2022. – 529 b.